

BEGIMQULOV ZARIF AXMADOVICH

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali
“Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Email: zarifbegimqulov77@gmail.com

Telefon: +99890-503-62-77

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABI JISMONIY TARBIYA FANI
O‘QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATIDAGI DOLZARB VAZIFALAR**

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya fanining o‘rni hamda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining muhim jihatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagog, jismoniy tarbiya, sport, fan, maktab, yetuklik.

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi “Pedagogning majburiyatlari” deb nomlangan. Unda pedagog o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda jumladan quyidagilarga rioya qilishi shart ekanligi qayd etilgan:

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sinini hurmat qilishi;

o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv dasturlari va davlat ta‘lim standartlariga muvofiq sifatli o‘tkazishi;

o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rishi;

ta‘lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta‘lim ehtiyojlari

12 - 13 March 2025

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e‘tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilar bilan ta‘lim-tarbiya ishlarini ularning otasini yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta‘lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta‘sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, turli sport musobaqalari orqali yoshlarga o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, ularda mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol topishlari uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Amaliyotdan ma‘lumki, jismonan sog‘lom, ma‘nan boy avlodni voyaga yetkazishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘tiladigan jismoniy tarbiya fani o‘z o‘rniga ega. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarda jismoniy tarbiya faniga qiziquvchi o‘quvchilar juda ko‘plab topiladi.

Amaldagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasida Jismoniy tarbiya fani 1-sinflarda 1 soat, 2-11 sinflarda 2 soatdan o‘qitilishi belgilangan. Tayanch o‘quv rejaga asosan Jismoniy tarbiya faniga ajratilgan soatlar amaliy fanlar yonalishiga ajratilgan soatlarning 41% ni tashkil etadi.

**Ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari
uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadani
KO‘CHIRMA**

№	Fan yo‘nalishlari nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	

12 - 13 March 2025

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

...													
V.	Amaliy fanlar	4	5	5	5	6	6	6	4	4	3	3	51
...													
5.4.	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	21
	Amaliy fanlarga nisbatan ajratilgan soatlar (% hisobida)	25	40	40	40	33	33	33	50	50	67	67	41%

Tadqiqotlarimiz jarayonida jismoniy tarbiya fanidan o‘tiladigan darslarga qatnashish umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining fe’l-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini guvohi bo‘ldik. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanining ahamiyati juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar har jihatdan intizomli bo‘lishi, kuchlilik, chaqqonlik, irodalilikni o‘zlarida shakllantirishi, shu jarayonda ularning sog‘ligi mustahkamlanishi, ish qobiliyati, aqliy faolligi yanada oshishini aniqladik.

Shuni alohida qayd etish kerakki, yosh avlodni jamiyatda barkamol, ma’naviy mafkurasi, fikri sog‘lom, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi, ularni yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ularda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining imkoniyatlari beqiyosdir.

Yuqorida qayd etilgan jihatlar pedagogdan katta mas’uliyat talab qiladi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi uzoqni ko‘ra bilishi, dars jarayoni va darsdan tashqari vaqtlarda so‘zlarni to‘g‘ri va ravon talaffuz qila olishi, o‘z fikrlarini hayotiy misollar asosida bayon qila olishi, did bilan kiyinishi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi, lavozim majburiyatlarini o‘z

12 - 13 March 2025

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

vaqtida va sifatli bajarishi, bolalarni yoqtirishi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan, hamkasblari va o'quvchilarga doimo bag'ri keng, samimiy, ochiq ko'ngil, xushmuomala, shirinsuxan, kamsuqum, mehr-muhabbatli, kamtarin, bosiq, xushfe'l bo'lishi zarur. U zukko, bilimdon, tashabbuskor, irodali, hamda o'z mutaxassisligi (fani) bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi bolalarni sportga qiziqitira olishi, o'sib kelayotgan barkamol avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirishi, o'quvchilarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish va zararli odatlardan xalos etishga oid chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirishi, ularga mehr ko'zi bilan qarashi, sofdil bo'lishi, doimo shirin so'zlashi, yigit-qizlarning sog'lom o'sishi, yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishi, intilishi va iqtidorini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari muassasa o'quvchilari bilan quyidagi tadbirlarni tashkil etishi va o'tkazishi muhim, deb hisoblaymiz:

- o'quvchilar bilan inson hayotida jismoniy tarbiya va sportning o'rnini namoyon etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;
- o'quvchilarni turli zararli odatlardan xalos etish, ularning hayotida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rnini targ'ib etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;
- o'quvchilar orasidan iqtidorlilarini aniqlash (seleksiya) va tanlangan sport turi bo'yicha ta'lim muassasalari (sport maktablari, ixtisoslashtirilgan sport maktablari, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari,

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

futbol akademiyalari, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha markazlar, oliy ta'lim muassasalari)ga yo'naltirish;

- o'quvchilarni jahon va mamlakatimiz sporti hayotidagi yangiliklar bilan tanishtirib borish;

- o'quvchilar uchun mamlakatimizning mashhur sportchilari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, mahorat darslari (master-klasslar) tashkil etish;

- jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, yangidan barpo etilgan sport inshootlariga sayohatlar uyushtirish;

- o'quvchilarning sport turlariga qiziqishlarini inobatga olib, sport to'garaklariga muntazam jalb qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi doimo o'zining bilimi, keng dunyoqarashi, axloqi bilan o'quvchi-yoshlarga namuna bo'la olishi kerak. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan butunlay voz kechib, doimiy tarzda yoshlarni rag'batlantirishi, o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishi, ularning shaxsini rivojlantirishi, bilim olishga intilishi, sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishlariga ko'maklashishi darkor. U o'z o'quvchilarini yot dunyoqarash, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun oila, maktab, mahalla va keng jamoatchilikning yaqin ko'makchisi bo'lishi zarur.

O'quvchilarga ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya berish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, inson, jamiyat va atrof muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish, ularning ongi, dunyoqarashi, ma'naviy

12 - 13 March 2025

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

dunyosini boyitish, ta'lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qimmat tuyg'usi, yuksak huquqiy madaniyat va ma'naviy hamda ijodiy fikrlashni tarkib toptirish, kishi hayotida jismoniy tarbiya va sportning o'rnini namoyon ettirish vazifalarini ijobiy hal etish – umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisidan fanni o'qitishga yangicha, zamonaviy talablar asosida yondashishni talab etadi. Dars jarayonini belgilangan talablar darajasida tashkil etish bilan birgalikda, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining axloqiy-ma'naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol, yangicha kasbiy dunyoqarash, zamon talablariga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishi ham muhim hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag'batlantirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish, barkamol avlodning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi maktab ma'muriyatining yaqin ko'makchisi bo'lishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi ichki dunyosi boy, o'z sohasining bilimdoni, barcha sohalarda bo'layotgan yangiliklarni, ma'lumotlarni o'zlashtirgan, chuqur bilimga ega bo'lgan holda siyosiy va tarbiyaviy jihatdan savodli, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va sport tizimida olib borilayotgan islohot talablarini chuqur anglagan, pedagogik yangilikka o'ch, shuningdek pedagogika, psixologiya hamda o'z mutaxassisligiga taalluqli fanlarga oid butun bir bilimlar tizimiga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O'RQ-901-son. <https://lex.uz/docs/-6786401>

12 - 13 March 2025

**“CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS”**

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 94-sonli buyrug‘i.

3. Z.Begimqulov, O.Xaydarov. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda umumiy o‘rta ta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining o‘rni. Jismoniy tarbiya va sport jurnali – 2022-yil №01 (120), B.23-24.